IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYAT − JAMIYATNING MA'NAVIY YANGILANISH MEXANIZMI

Mamashukurov Ozodbek Erkin o'g'li
Namangan davlat unversiteti

Annotasiya: ushbu maqolada ijtimoiy madaniy faoliyat,jamyatning manaviy yangilash mexanizmi shuningdek sohadagi yangiliklar aks ettirilgan

Kalit so'zlar: mandaniy faoliyat, ijtimoiy institut, ommaviy madaniyat, ma'rifiy islohotlar, fuqarolik jamiyati,inson huquqlari, aql tafakkuri Ijtimoiy-madaniy faoliyat**.**

СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ - МЕХАНИЗМ ДУХОВНОГО ОБНОВЛЕНИЯ ОБЩЕСТВА

Мамашукуров - сын Озодбека Эркина
Наманганский государственный университет

Аннотация: в данной статье отражена общественно-культурная деятельность, механизм духовного обновления общества, а также новости в сфере

Ключевые слова: культурная деятельность, социальный институт, массовая культура, образовательные реформы, гражданское общество, права человека, интеллектуальное мышление.

SOCIO-CULTURAL ACTIVITY - MECHANISM OF SPIRITUAL RENEWAL OF SOCIETY

Mamashukurov is the son of Ozodbek Erkin
Namangan State University

Abstract: this article reflects social and cultural activity, the mechanism of spiritual renewal of society, as well as news in the field

Key words: cultural activity, social institution, popular culture, educational reforms, civil society, human rights, intellectual thinking.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari bilan bir qatorda aholining turmush madaniyatini tubdan yaxshilash, kishilarning bo'sh vaqtini tashkil etish, ularning o'sib borayotgan ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirish kabi dolzarb masalalarga jiddiy e'tibor berildi. Xususan, inson ong tafakkurini bugungi taraqqiyot darajasiga mutanosibligini ta'minlash, ularni ozod va obod vatanning haqiqiy fuqarosi sifatida ulkan bunyodkorlik ishlariga qodir bo'lishi muhimdir. Buning uchun esa jamiyatda ijtimoiy-madaniy faoliyat zarur edi. Chunki bu g'oyaviy va tarbiyaviy faoliyatning institutsionlashtiruvchi mexanizm bo'lib, fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va xalqning ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat evolyusiyasi uzoq kechgan tarixiy jarayondir. Chunki, "uning tub ildizlari insoniyatning ilk uyushuvlari davriga borib taqaladi. Ilk uyushuv shakllari esa ilmiy adabiyotlarda tosh, bronza, temir davrlarida tarkib topganligi talqin etiladi. Bu davrda odamlarning madaniy ijtimoiylashuvi hayotni ta'minlash, uning barqaror davomiyligini belgilash zaruratidan

yuzaga kelgan. Hayotning moddiy tomonlarini ta'minlash uchun odamlar bir-birlariga ov qilish, baliq tutish, ekin ekish, boshqa jinsni o‘ziga jalb etishga erishishni turli o‘yinlar, mashqlar tarzida o‘rgatib borganlar. O‘rgatish uzluksiz, doimiy davom etgan. O‘rgatish uzluksizligi va doimiyligi esa ta'limning alohida soha sifatida shakllanishiga sabab bo‘lgan. Demak, ijtimoiy-madaniy faoliyat ta'limning asosi bo‘lgan deyish mumkin”[1.].

Mazkur masala bugungi kunga qadar turlicha ta'riflanib kelingan. Jumladan, rossiyalik professor V. V. Tuev ijtimoiy-madaniy faoliyat boshqariladigan jamiyat va uning ijtimoiy institutlari ta'sirida insonlarni madaniylashtirish jarayonidir. Ushbu jarayonning asosiy ishtirokchisi insondir, - deb baholaydi. Bu ijtimoiy-madaniy faoliyat natijasida insonlarda ijtimoiy sifatlarning paydo bo‘lishi bilan xarakterlanishini ko‘rsatadi va bu jarayonning amalga oshishi jamiyatda muayyan tuzilmalarning mavjud bo‘lishini taqazo etadi. Mazkur tizim ijtimoiy institutlar hisoblanadi. Biroq, bu qarash ijtimoiy-madaniy faoliyatning ijtimoiy institutlar faoliyatining natijasi sifatida qaralishiga olib keladi.

N. N. Yarashenko ijtimoiy-madaniy faoliyat tushunchasini tahlil qilar ekan, kundalik hayotda uch xil ma'noda qo‘llanilishini ta'kidlaydi. Bu birinchidan, hozirgi zamon ijtimoiy-madaniy soha uchun zarur bo‘ladigan ko‘plab kasblar ta'siridagi umumiy amaliyot, ikkinchidan, o‘zining muayyan mantiq va tuzilishiga ega o‘quv fani, uchinchidan esa olimlar va amaliyotchi mutaxassislarning ulkan mehnatlari evaziga rivojlangan, tarixiy jarayonda paydo bo‘lgan ilmiy bilim va nazariyadir[2.].

Shuningdek, ayrim manbalarda mutanosib tarzda madaniy-ma'rifat ishi tushunchasi ham ishlatilgan bo‘lib, bu – keng ommani madaniy va ma'rifiy tarbiyalash, ularning umumiy madaniy saviyasini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo‘sh vaqtlarini ko‘ngilli o‘tkazishga ko‘mak beruvchi tadbirlar tizimi [3.] - deb tavsiflanadi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat atamasini tahlil qilishda dastlab, bu atamani ifodalagan so‘zlarning etimologiyasiga nazar tashlash lozim.

Ijtimoiy − bu kishilik jamiyati, uning hayoti va qonuniyatlariga oid, biror ijtimoiy tabaqa, sinfga oid, jamiyatga, jamoatchilikka oid, jamiyatning, ommaning ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlari uchun ixtiyoriy ravishda xizmat etishga aloqadorlikdir. Madaniy atamasi madaniyatga oid, madaniyatga xoslik bilan harakterlangan. Faoliyat bu biror sohada olib boriladigan ish, mashg‘ulot, harakat, jarayon. [4.] Shuningdek, faoliyat − kishilarning tashqi olamga faol munosabati shakli, insonning o‘zini o‘zi maqsadga muvofiq tarzda o‘zgartirish usuli, inson borlig‘ining muhim xususiyatlaridan biri” [5.].

Yuqorida keltirilgan atamalarning umumlashmasi bevosita ijtimoiy-madaniy faoliyat jamiyatning ommaviy tarzda ma'naviy – ma'rifiy islohotlarini umumlashtiradi.

Insonda sog‘lom ehtiyojlarning shakllanishiga, o‘z shaxsi bilan ixtilofga bordirmasdan, uning asl insoniy mavjudligini ta'minlashga xizmat qiladigan aqliy va hissiy muhit, falsafiy, axloqiy, ilmiy, diniy, badiiy va boshqa madaniy qadriyatlar, me'yorlar, ideallar hamda ijodiy faoliyatning o‘zaro mushtarakligi – bu ma'naviyatdir. Ehtiyojlar yuksalishi va ma'naviyat rivojlanishi o‘zaro chambarchas bog‘liq. Ehtiyojlar yuksalsa, ma'naviyat rivojlanadi, rivojlangan ma'naviyat esa yuksak ehtiyojlarni taqozo etadi. Rivojlangan ma'naviyat – bu qondirilgan ehtiyojdir va ayni paytda avvalgi ehtiyojga nisbatan yuksakroq yangi ehtiyojning tug‘ilishidir[6.].

Bu ijtimoiy-madaniy faoliyatning jamiyat ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi vosita sifatida baholashi bilan bir qatorda, ma'naviyat va ehtiyoj tushunchalarini o‘zaro bog‘liqligini tavsiflaydi.

Yuqorida keltirilgan ijtimoiy-madaniy faoliyat borasida keltirilgan mulohazalarni yakuniy xulosasi sifatida - “ijtimoiy-madaniy faoliyat – jamiyat qonuniyatlari va qadriyatlarini madaniy o‘zlashtirish asosida jamiyat a'zolarining madaniy ehtiyojlarini qondirish, ong-tafakkur islohotlarini kechishiga yo‘naltirilgan uzluksiz tizim”-deya ta'rif berish mumkin.

Har bir jamiyat o‘z madaniy ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Jamiyat o‘zgarishi bilan uning madaniyati o‘zgaradi-yu, lekin madaniy taraqqiyotdan uzilib qolmaydi. Jamiyat a'zolarining ijtimoiy-madaniy faoliyati bilan u tizimli tarzda takomillashib boradi.

Bugun ijtimoiy-madaniy faoliyatning mohiyati tubdan o‘zgardi. U ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, jamiyat a'zolarining ijtimoiy xarakteri va tafakkur tarzini ifodalashi bilan ahamiyatlidir.

Mustaqillik sharoitida O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-madaniy faoliyatning yangicha tizimlari paydo bo‘ldi. Jumladan, ijtimoiy-madaniy faoliyat ta'lim sohasida namoyon bo‘lishi bilan tarbiya tizimida shaxslarning ijtimoiylashuvi, ya'ni yuqori darajada ijtimoiy norma, qadriyatlarga moslashish va ularni o‘zlashtirish va unga amal qilish, jamiyatda ijtimoiy rolini egallash jarayoni tashkil etildi. Bu o‘z navbatida, ta'lim muassasalarida darsdan tashqari madaniy-ma'rifiy, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida olib boridadigan badiiy-estetik tarbiya ishlarini qamrab oldi. Chunki, insoniyatning ijtimoiylashuvi shunday jarayonki, uning ishtirokchilari ta'lim jarayonida ijtimoiy-madaniy normalarni egallash bilan bir qatorda o‘zlashtirish, bajarish va uni mustaqil namoyon etishga ham o‘rgatiladi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning madaniy sohada namoyon bo‘lishi bilan esa odamlarning onglilik darajasi, madaniy saviyasini ko‘tariladi. Busiz esa umumiy maqsad-erkin fuqarolik jamiyatiga erishib bo‘lmaydi. Chunki, madaniyatsiz jamiyat, jamiyatsiz madaniyat bo‘lmaydi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning fuqarolik jamiyatining turli institutlari, jumladan, nodavlat-notijorat tashkilotlari faoliyatida namoyon bo‘lishi esa rivojlanayotgan jamiyatga hos xususiyat bo‘lib, u fuqarolarni ijtimoiy faolligini oshirish, xususan, ijtimoiy hamkorlikning muhim sub'ektiga aylanishlari uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Bu o‘z navbatida fuqarolik tarbiyasini yanada kuchaytirishni talab etadi. Fuqarolik tarbiyasi ma'naviyat va ma'rifat bilan yo‘g‘rilsagina samarali bo‘ladi. Buning uchun esa jamiyatda ijtimoiy-madaniy faoliyatning institutsionlashgan tizimi vujudga keladi. Bular davlat va nodavlat shaklidagi turli ijtimoiy tuzilmalar, jumladan, siyosiy partiyalar, jamg‘armalar, uyushmalar, markazlar, federatsiyalar, qo‘mitalar, ijtimoiy harakatlar va shu kabi boshqa jamiyat a'zolarining ijtimoiy rivojlanishiga qaratilgan faoliyatni amalga oshiruvchi muassasalardir.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, fikr, tafakkur, his-tuyg‘u tinim bilmaganidek, ularning mahsuli o‘laroq ma'naviyat ham doimo o‘zgarib va yangilanishda bo‘ladi. [7.]. Shuningdek, ma'naviyat haqida har qancha da'vatlar, muhim nazariy fikrlar bildirilmasin, agar ularni jamiyat ongiga singdirish uchun doimiy ish olib bormasak, bu boradagi faoliyatimizning har tomonlama puxta o‘ylangan tizimli ravishda tashkil etmasak, tabiiyki, biz ko‘zlagan maqsadga erisholmaymiz, ya'ni, inson qalbiga yo‘l topolmaymiz. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasidan boshlab, matbuot, televidenie, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san'atigacha, bir so‘z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o‘tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma'naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur[8.].

Bu zarurat jamiyatning ma'naviy yangilanish mexanizmi xisoblangan ijtimoiy-madaniy faoliyatdan maqsadli foydalanish bugungi kunning dolzarb masalasi ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida islohot islohot uchun emas, balki, inson va uning manfaatlariga xizmat qilishi bir tomondan insonning oliy qadriyat sifatida baholanishini ta'minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa uning aql-tafakkurini undanda yuqori darajaga olib chiqadi. Chunki, har bir suveren davlat o‘zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi

[9.]. Shuningdek, aql-tafakkuri ozod xalqgina ulkan bunyodkorlik ishlariga qodir bo‘ladi. Buning uchun O‘zbekiston Respublikasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, ijtimoiy-madaniy faoliyat jamiyat a'zolari ong-tafakkurini jamiyat taraqqiyotiga mutanosib tarzda o‘zgarib borishini ta'minlovchi mexanizm bo‘lib, uning rivojlanishi ertangi kunda fuqarolarning ijtimoiy taraqqiyot uchun daxldorligini kafolati bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmurodov M., Umarov A., Qoraboev U., Xaydarov Z. Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixi, nazariyasi va uslubiyoti. −Toshkent: Ma'naviyat, 2016. −B. 49.
2. Yaroshenko N. N. Sotsialno-kulturnaya deyatelnost: Paradigmы, metodologiya, teoriya: Monografiya. −Moskva: MGUKI, 2000. – B. 204.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 5-tom.-Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – B. 372.
4. Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S., Kokren K., Saidxonov M., Sobirov A., Quronov D. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. −Toshkent: Sharq, 2001. − B. 61,80,125.
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 9-tom.-Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – B. 186.
6. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot.−Toshkent: Ma'naviyat, 2017. − B. 40.
7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-kitob. −Toshkent: O‘zbekiston, 1999. − B. 302.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. −Toshkent: Ma'naviyat, 2017. − B. 129.
9. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birga quramiz. −Toshkent: O‘zbekiston, 2017. − B. 4.